



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 8-yanvar

8-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi 465-sonli qarorining ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 465-sonli qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunning 6 va 25-moddalariga muvofiq, qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 465-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan:

- dala chetlari hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yangi tartib joriy etilishi:

- O‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) dala chetlarida hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalarida mahsulot yetishtirish, qishloq xo‘jaligi subyektlariga urug‘ va ko‘chatlar yetkazib berish hamda yetishtirilgan mahsulotlarni eksportga yo‘naltirishni tashkil qilish vazifasi yuklatilishi;

- Agentlik yil davomida daromadli ekinlar ekish va ularni eksport qilish uchun meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchi tadbirkorlarning talablarini o‘rganishi;

- Agentlik har yili 1-yanvarga qadar talabni hisobga olgan holda, shuningdek, har bir tuman va mahallaning iqlim sharoitidan, bu yerdagi aholining tajribasidan kelib chiqib, ekin turlari bo'yicha tuman hokimliklariga taklif berilishi;

- o'simliklar karantini va himoyasi davlat inspektorlari har bir qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga alohida biriktirilishi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga dala chetlarini ikkilamchi ijaraga berishni tashkil qilish uchun dala chetlariga doir ma'lumotlar (jumladan, mulkchilik shakli, suv ta'minotiga oid) Agentlik tomonidan "Agroko'makchi" mobil dasturida keng jamoatchilikka e'lon qilib borilishi;

- tuman hokimliklari tomonidan har yili 1 fevralga qadar tegishli yil hosili uchun dala chetlarida ekin ekish ishlarini tashkil etish va yetishtiriladigan mahsulotning prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinishi;

- Agentlik har yili 15-fevralga qadar har bir konturga urug', ko'chat tarqatadigan va mahsulotni sotib oladigan tadbirkorlarni aniqlab, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga bog'lab berilishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. dala chetlari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi hamda mahallaning ichki ko'chalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilishini tashkil qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga;

tuman (shahar)lar ishchi guruhining namunaviy tarkibi 2-ilovaga;

viloyatda 2025-yilda dala chetlaridagi maydonlarga mevali daraxtlar ekish prognoz ko'rsatkichlari 3-ilovaga;

2025-yilda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda mevali daraxtlar ekish prognoz ko'rsatkichlari 4-ilovaga;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarining dala chetlari hamda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarni aniqlash mezonlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ishchi guruhlarga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

dala chetlariga har yili 1-aprelga qadar ekin ekmagan va yil davomida mahsulot yetishtirmagan yerdan foydalanuvchilarga nisbatan dalolatnoma rasmiylashtirib, jarima qo'llash uchun Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasiga taqdim qilish, shuningdek, Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan ajratiladigan kredit resurslari hisobidan moliyalashtirishni to'xtatish yuzasidan tegishli tijorat banklariga murojaat qilish;

doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan yerlarda joylashgan dala chetlaridan bir yil mobaynida unumli foydalanmaganligi yuzasidan ushbu yerlar birlashtirilgan davlat organlariga taqdimnomalar kiritish;

dala chetlarining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi va ijarachisi har yili 1-aprelga qadar ushbu yer maydoniga ekin ekmagan yoki ikkilamchi ijaraga bermaganda, dala chetlarini talabgorlarga to'g'ridan-to'g'ri o'n yilgacha muddatga ikkilamchi ijaraga berish haqida dala chetlarining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi va ijarachisiga talabnoma kiritish.

har bir tuman bo'yicha dala chetlaridagi hamda xonadon va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalaridagi yer maydonlarini o'rganib, aniq o'lchamlarni tasdiqlash;

tuman (shahar) hokimlari va Kadastr agentligining hududiy bo'limlari tomonidan mulkchilik huquqi aniqlanmagan dala chetlaridan foydalanish huquqini belgilash va davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlarini tashkil qilish;

har bir tuman kesimida dala chetlarida hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalarida ekin ekiladigan maydon va mahsulot turlarini o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar bazasini tegishli yilning 15-fevraliga qadar shakllantirish;

dala chetlarida hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalarida ekish uchun hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos urug' va ko'chatlar tanlab olinishi bo'yicha tavsiyalar berish hamda agrotexnik tadbirlarni subyektlar kesimida tashkil qilish;

hosildor urug' va ko'chat navlarining, shuningdek, mineral o'g'it va kimyoviy preparatlarning o'z vaqtida yetkazib berilishini tashkil etish;

yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotuvini, shu jumladan, "Uzex Agro" elektron savdo platformasi orqali tashkil qilish.

5. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari O.Tursunov hamda tuman (shahar)lari bilan birgalikda tuman ishchi guruhlarining tavsiyasiga asosan, dala chetida yetishtirilgan mahsulotlarni aholiga yetkazib beruvchi tadbirkorlarga har bir tuman (shahar)da dehqon bozorlari, savdo markazlari va transport qatnovi gavyum avtomobil yo'llari chetlaridan joy ajratib berishni, harakatlanuvchi ko'chma do'konlar faoliyatini yo'lga qo'ysin.

6. Viloyat ishchi guruhi tomonidan dala chetlaridan samarali foydalanish va qo'shimcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha Andijon viloyatidagi ilg'or tajribaga ega usta dehqonlar tomonidan har yili mart – aprel

o'ylarida hamda takroriy ekin ekiladigan iyun – iyul o'ylarida har haftaning ikki kuni mobaynida ko'rgazmali seminarlar tashkil qilsin.

7. “Chirchiq Ohangaron” ITHB B.Qurbonov dala chetlarida ekilgan qishloq xo'jaligi ekinlarini o'z vaqtida suv bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

8. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi Z.Eraliyeva, viloyat teleradiokompaniyasi O.Begaliyevga O'simliklar karantini va himoyasi agentligi viloyat boshqarmasi F.Muhayminov bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishi nazorat qilish viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari-viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i X.Qoraboyev zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev

Toshkent viloyat hokimining
2025-yil 8-yanvardagi
8-10-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Dala chetlari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari
atrofidagi maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli
uyalar oldi hamda mahallaning ichki ko'chalarida qishloq xo'jaligi
mahsulotlari yetishtirilishini tashkil qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha
VILOYAT ISHCHI GURUHI TARKIBI**

T/r.	Ismi va familiyasi	Lavozimi
1.	Qoraboyev Xurshid Abduvahobovich	Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i, viloyat ishchi guruhi rahbari
2.	Ro'ziyev Saidakbar Egamberdiyevich	Viloyat prokurorining o'rinbosari, viloyat ishchi guruhi rahbarining o'rinbosari
3.	Iminov Ziyod Galibovich	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, viloyat ishchi guruhi rahbarining o'rinbosari
4.	Muhayminov Furqat Abdujabborovich	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i
5.	Qurbonov Baxtiyor Dehqonboyevich	"Chirchiq Ohangaron" ITHB boshlig'i
6.	Sodiqov Sodiq Karimbayevich	Viloyat agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i
7.	Xoshimov Shuxrat O'razaliyevich	O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyat boshqarmasi boshlig'i
8.	Niyozov Xolmirza O'zganovich	Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Toshkent viloyati kengashi raisi
9.	Yusufaliyev Javlon Jo'raboyevich	Viloyat agrosanoatni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
10.	Payziyev Rustam Qulmaxamatovich	Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi boshlig'i
11.	Ashirov Farxod Ashirovich	Viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining yer masalalari bo'yicha o'rinbosari

12.	Akramov Murodxo'ja Xayotovich	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi viloyat boshqarmasi ichki fitosanitar nazorati bo'limi boshlig'i, <i>viloyat ishchi guruhi kotibi</i>
-----	----------------------------------	--

Toshkent viloyat hokimining
2025-yil 8-yanvardagi
8-10-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Dala chetlari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi
maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi
hamda mahallaning ichki ko'chalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari
yetishtirilishini tashkil qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha
TUMAN ISHCHI GURUHI NAMUNAVIY TARKIBI**

T/r.	Ismi va familiyasi	Lavozimi
1.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman (shahar) hokimi, <i>tuman ishchi guruhi rahbari</i>
2.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman (shahar) prokurori, <i>tuman ishchi guruhi rahbarining o'rinbosari</i>
3.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi boshlig'i, <i>tuman ishchi guruhi rahbarining o'rinbosari</i>
4.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman (shahar) soliq inspeksiyasi boshlig'i, <i>tuman ishchi guruhi rahbarining o'rinbosari</i>
5.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari - tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i
6.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori
7.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i
8.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman (shahar) o'simliklar karantini va himoyasi bo'limi boshlig'i
9.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman (shahar) bo'limi boshlig'i
10.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tuman kengashi rahbari
11.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman (shahar) kadastr bo'limi boshlig'i
12.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	Tuman (shahar) o'simliklar karantini

		va himoyasi bo'limi prognozashtirish va monitoring qilish bo'yicha bosh mutaxassisi, <i>tuman ishchi guruhi kotibi</i>
--	--	--

Toshkent viloyat hokimining
2025-yil 8-yanvardagi
8-10-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Toshkent viloyatida 2025-yilda dala chetlaridagi maydonlarga mevali daraxtlar ekish
PROGNOZ KO'RSATKICHLARI**

T/r	Hududlar nomi	Fer-mer-lar soni	Jami dala chetiga mevali daraxt ekiladi-gan may-don, (ga)	2025-yilda ko'chatlar ekish		shundan											
						olcha		olxo'ri		behi		uzum		chilon jiyda		tut daraxti	
				may-don, (ga)	ko' chat soni, (ming dona)	may-don, (ga)	ko' chat soni, (ming dona)	may don, (ga)	ko' chat soni, (ming dona)	may don, (ga)	ko'- chat soni, (ming dona)	may don, (ga)	ko'- chat soni, (ming dona)	may don, (ga)	ko'- chat soni, (ming dona)	may don, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)
1	Bekabod	526	152,0	152,4	148,9	30,0	25,7	31,0	20,1	15,0	12,5	30,0	33,0	23,2	11,5	23,2	46,1
2	Bo'ka	637	146,0	146,1	145,0	30,0	25,6	25,0	16,3	15,0	12,5	30,0	33,0	23,1	11,5	23,0	46,1
3	Bo'stonliq	472	50,0	50,4	48,5	10,0	8,5	11,0	7,2	5,0	4,3	10,0	11,0	7,2	3,5	7,2	14,0
4	Zangiota	302	61,0	61,1	59,6	12,0	10,2	13,0	8,5	6,0	5,2	12,0	13,2	9,0	4,5	9,1	18,0
5	Quyi Chirchiq	77	129,0	129,0	125,9	26,0	22,1	26,0	16,9	13,0	11,0	26,0	28,3	19,0	9,5	19,0	38,1
6	Qibray	486	150,0	149,0	145,7	30,0	25,5	31,0	20,2	14,0	11,9	30,0	33,0	22,0	11,0	22,0	44,1
7	Ohangaron	580	160,0	159,0	155,8	32,0	27,2	32,0	20,5	15,0	12,8	32,0	35,2	24,0	12,0	24,0	48,1
8	Oqqo'rg'on	269	142,0	142,0	138,4	28,0	23,8	30,0	19,5	14,0	11,9	28,0	30,8	21,0	10,3	21,0	42,1
9	Parkent	1 297	26,0	30,0	30,7	6,0	5,1	3,0	2,0	3,0	2,6	10,0	11,0	4,0	2,0	4,0	8,0
10	Piskent	304	52,0	52,1	51,0	10,0	8,5	11,1	7,2	5,0	4,3	10,0	11,0	8,0	4,0	8,0	16,0
11	Toshkent	285	186,0	185,0	181,8	37,0	31,4	37,0	24,1	18,0	15,4	37,0	40,7	28,0	14,1	28,0	56,1
12	O'rta Chirchiq	279	120,0	120,0	117,8	24,0	20,4	24,0	15,6	12,0	10,2	24,0	26,4	18,0	9,0	18,0	36,1
13	Chinoz	219	75,0	75,0	73,2	15,0	12,7	16,0	10,4	7,0	6,0	15,0	16,5	11,0	5,5	11,0	22,0
14	Yuqori	326	80,0	80,0	78,6	16,0	13,6	16,0	10,4	8,0	6,9	16,0	17,6	12,0	6,0	12,0	24,0

	Chirchiq																
15	Yangiyo'l	616	161,0	159,0	155,2	32,0	27,2	32,0	20,8	19,0	16,2	28,0	30,8	24,0	12,0	24,0	48,1
	Jami:	6 675,0	1 689,9	1 690	1 656	338	287,3	338	219,7	169	143,6	338,0	371,8	253,5	126,7	253	507

**2025-yilda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarga mevali daraxtlar ekish
PROGNOZ KO'RSATKICHLARI**

T/r	Hududlar nomi	Jami dala chetiga mevali daraxt ekiladigan maydon, (ga)	2025-yilda ko'chatlar ekish		shundan											
					olcha		olxo'ri		behi		uzum		chilon jiyyda		tut daraxti	
			may-don, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	may-don, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	may-don, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	may-don, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	may-don, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	may-don, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	may-don, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)
1	Bekabod	6,4	6,4	6,1	1,1	0,9	1,1	0,7	0,5	0,4	0,9	1,0	1,7	0,9	1,1	2,2
2	Bo'ka	7,0	7,0	7,0	1,2	1,0	1,1	0,7	0,7	0,6	0,9	1,0	1,7	0,9	1,4	2,7
3	Bo'stonliq	4,1	4,1	4,7	0,5	0,4	0,4	0,2	0,3	0,2	1,8	2,0	0,3	0,2	0,8	1,6
4	Zangiota	2,6	2,6	2,7	0,4	0,4	0,5	0,3	0,4	0,3	0,4	0,4	0,3	0,2	0,5	1,1
5	Quyi Chirchiq	3,4	3,4	3,4	0,9	0,8	0,9	0,6	0,4	0,3	0,5	0,6	0,2	0,1	0,5	1,1
6	Qibray	3,8	3,8	3,6	1,1	0,9	1,1	0,7	0,4	0,3	0,4	0,4	0,3	0,2	0,5	1,1
7	Ohangaron	3,8	3,8	3,7	1,1	1,0	1,1	0,7	0,3	0,2	0,5	0,6	0,2	0,1	0,5	1,1
8	Oqqo'rg'on	3,3	3,3	2,9	1,0	0,8	1,0	0,7	0,3	0,3	0,4	0,4	0,3	0,1	0,3	0,5
9	Parkent	3,5	3,5	3,4	0,2	0,2	0,4	0,3	0,3	0,2	1,8	2,0	0,5	0,3	0,3	0,5
10	Piskent	3,4	3,4	3,4	0,4	0,3	0,4	0,2	0,5	0,4	0,9	1,0	0,7	0,4	0,5	1,1
11	Toshkent	4,5	4,5	4,0	1,3	1,1	1,3	0,9	0,3	0,3	0,9	1,0	0,3	0,2	0,3	0,5
12	O'rta Chirchiq	4,7	4,7	5,0	0,9	0,7	0,9	0,6	0,6	0,5	0,6	0,7	0,7	0,4	1,1	2,2

13	Chinoz	2,9	2,9	2,6	0,5	0,4	0,5	0,3	0,3	0,3	0,7	0,8	0,5	0,3	0,3	0,5
14	Yuqori chirchiq	3,4	3,4	3,3	0,6	0,5	0,6	0,4	0,6	0,5	0,5	0,6	0,7	0,4	0,5	1,1
15	Yangiyo'l	4,2	4,2	3,8	1,1	1,0	1,1	0,7	0,4	0,3	0,9	1,0	0,3	0,2	0,3	0,5
Jami:		60,9	60,9	59,6	12,3	10,3	12,3	8,0	6,2	5,2	12,1	13,3	9,0	4,8	9,0	18,0

Toshkent viloyat hokimining
2025-yil 8-yanvardagi
8-10-0-Q/25-son qaroriga
5-ilova

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarining dala chetlari
hamda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari arofidagi
maydonlarni aniqlash mezonlari**

1. Ekin dalalarining kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari bilan tutashgan joyi yoki mazkur tarmoqlar bilan ekin yeri o'rtasidagi chegara chizig'i, shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va suv fondi yerlari toifasidagi yo'llar, ariqlar, lotoklar, kanallar, kollektorlar va drenajlarning qirg'oqlari bo'ylab ekin yerigacha bo'lgan foydalanilmaydigan sug'orish imkoniyati mavjud sho'rlanmagan yerlar.
2. Ekin dalalarining atroflarida foydalanilmasdan qolib ketgan dala yo'llari.
3. Kanallar, sug'orish tarmoqlari va kollektor-drenaj tarmoqlarining sohilbo'yi mintaqa maydonlaridan tashqari foydalanilmayotgan yerlar.